

INDONEZ TIL LEKSIKOLOGIYASIGA O'ZLASHGAN SO'ZLAR TAHLILI

F.B. Avazova

Ikkinchi chet tili kafedrasida katta o'qituvchisi

USWLU

Annotatsiya:

Talabalarga chet tilini o'rgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o'rganilayotgan indonez tilining funktsional shakllari va uslublarini, til to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir.

Kalit so'zlar: indonez tili, leksikologiya, o'zlashgan so'zlar, amaliy va nazariy bilimlar, muloqot.

Indonez tili fanini o'zlashtirish jarayonida talaba o'rganilayotgan tilning morfologik tuzilishi va tovush tizimi, o'rganilayotgan tildan ona tiliga tarjima amaliyoti, o'rganilayotgan tilning rivoji va til doirasidagi asosiy ekstralingvistik shakllanish faktorlari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xilligi haqidagi bilimlarni egallashi kerak. Xar bir tilda grammatik tuzilishlar turlicha.

“Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liklik til orqali namoyon bo'ladi”¹.

Til tizimining turli tomoni – lug'at tarkibi, lug'at fondi va Grammatik tuzilishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda rivojlana boradi. Tildagi ana shu taraqqiyotni, uning boyliklarini, nozikliklarini ko'rsatuvchi omillardan biri o'zlashgan qatlam hisoblanadi.

Zamon talabi va shiddati bir tilning boshqa tildan yangi so'zlar va terminlarni qabul qilishini taqazo etadi. O'zlashma so'zlar sohasi lug'at tarkibidagi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, uning qanchalik boy va xilma-xil so'z ko'rinishlariga ega ekanligini ko'rsatuvchi belgilardan biri sanaladi. O'zlashma so'zlar zamon talabi bilan kishilarning so'z ma'nolarini har tomonlama to'la va mukammalroq ochishga urinishdan kelib chiqadi. Kuzatuvlarga qaraganda indonez tilshunosligida o'zlashma so'zlar mavzusi leksikologiya sohasining nisbatan kam o'rganilgan hamda muammoli mavzularidan biri hisoblanadi.

U yoki bu milliy tilda o'zlashma qatlamni o'rganish, o'sha millat tilining lug'at tarkibining qanchalik boy ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari o'zlashma so'zlarning uslubiy tomondan ham ahamiyati kattadir. Indonez tili lug'at boyligi o'zlashma so'zlarga juda boy bo'lib, har bir so'zni to'g'ri va o'rnida qo'llay bilish muammolari indonez tili o'rganuvchilari uchun mushkullik tug'diradi, turli uslubiy-ma'naviy xatoliklarga yo'l qo'ilishi mumkin.

Rivojlanish jarayonida bu til lug'ati xitoy, sanskrit, arab, golland va boshqa qardosh (yava, sundan, minangkabau va boshqa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyib boradi. Fonetik tarkibi 6 unli, 4 diftong va 18 undoshdan iborat; undoshlar jarangli va jarangsizga bo'linadi. Indonez tili malay tilidan bir qancha o'rinlarda farq qiladi, chunki ikkala til ham tarixdaturlicha ta'sirlarni boshidan o'tkazishgan. Aksariyat indoneziyaliklar o'zlarining birinchi tili sifatida o'zlarining mahalliy tillarida so'zlashishni afzal ko'radilar.

Qadimda va o'rta asrlarda Indonez tili 200 dan oshiq turli tillardan tashkil topgan butun bir arxipelag bo'ylab vositachi til (Lingua franca) vazifasini bajargan.

Indonez tilidan ingliz tiliga o'zlashgan so'zlar ham yo'q emas. Ingliz tiliga o'zlashgan so'zlar (masalan; bamboo, orangutan, dugong, amok va hokazo.). Angliya Singapur va Malayziyani mustamlaka qilgan

paytlarida bu so'zlar asosan malay tili orqali o'tgan bo'lib, xuddi shu yo'l orqali Golland tilining ham turli xil mahalliy tillaridan so'zlarni qabul qilish holati yuz bergan.

Indonez tili etimologiyasi va o'zlashma so'zlar xronologiyasi ustidagi izlanishlar tarixiy va ijtimoiy kontekstlarda o'z aksini topadi. Qadimiy Sanskrit tili o'zlashma so'zlar namunalari Shiravidjaya qirolligi davriga, Arab va Fors tillaridan o'zlashma so'zlar esa xususan, Islomning tashkil topish davriga, Golland tilidan olingan so'zlar esa mustamlakachilik paytlariga to'g'ri keladi. Bu yerda lingvistika tarixi va madaniy tarixning qay darajada uzviy bog'likligini ko'rishimiz mumkin.

- Qadimgi Hinduizm va Buddizm ta'siri natijasida Indonez tili (ayniqsa, Yava tili) ga ko'plab Sanskrit so'zlari kirib keldi. Hind savdogarlari nafaqat yangi atama va so'zlarning kirib kelishiga, balki Tamil va Sanskrit tillarining arxipelagda keng yoyilib ommabop bo'lishiga ham o'z hissalarini qo'shganlar.

- Indonezionaliklar qadim-qadim zamonlardan Xitoyliklar bilan savdo aloqalarini olib borganlar va ko'pgina Xitoylik ko'chmanchilar Indoneziyaga ko'chib kelishni boshlashgan. Ba'zi bir Xitoy tillarining ta'siri natijasida, ayniqsa Hokkian dialekti, xitoy tili Indonez tiliga omuxtalana boshlangan.

- Islom dini ta'siri, birinchi bo'lib Arab va Fors savdogarlarining harakatlari, bir qancha asrlar Arablar hukmronligidavrida Arab va Fors tillarining Indonez tiliga ko'rsatgan ulkan ta'siri

- Portugaliyaliklarning XVI asrdagi bitim, savdo va mustamlakachilik harakatlari, garchi uzoq muddat davom etmagan bo'lsa-da, Indoneziya va Yevropa madaniyati o'rtasidagi dastlabki aloqalardan sifatida hozirgacha o'z ta'sirini saqlab qolgan.

- Niderlandiya mustamlakachiligi va boshqaruvi, XVII asrdan to XX asrga qadar davom etgan, Indonez tili lu'gatiga o'ta katta ta'sir o'tkazgan. Golland-maxsus tayyorlangan lingvistlari Indoneziya rasmiy tili uchun Grammatik qoidalar ishlab chiqishgani va indonez tili grammatikasiga ham yangi qo'shimchalar kiritishgan. Misol uchun, suffiks "-as" (mas., kualitas=quality), "-asi" (mas., administrasi=adminstration), va "-if" (mas., aktif=active) shu kabilar qabul qilingan. Ba'zi o'zlashma so'zlarning Indonez tilida ekvivalenti bor bo'lishiga qaramasdan ular og'zaki nutqda juda faol qo'llaniladi.

- Zamonaviy Indonez tili hozirgi paytda ham boshqa tillardan yangi so'zlarni o'zlashtirib boyib bormoqda. Aksariyat texnikga oid so'zlar Golland tilidan olinsa-da (mas., mashina extiyot qismlari), hitech (yuqori texnologiya) ga oid so'zlar Ingliz tilidan tipik ravishda qabul qilinadi (mas., resume, global, super, boss).

Indonez tili brend nomlarni sodda otlar shakliga ya'ni umumiy nom sifatida umumlashtirib olgan. Misol uchun, "sanyo" har qanday elektronik suv nasozlari tegishli so'z, ishlab chiqaruvchi kim bo'lishidan qat'i nazar barcha tishpastalari "odol" nomi bilan yuritiladi. Bu umumlashtirishning bir ko'rinishi bo'lib Ingliz tilidagi so'zlarda ham "xerox", "tampax" kabi umumlashtiruvchi so'zlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda Indonez tili dunyodagi eng boy tillardan biri hisoblanadi. Indonez tilining ana shunday katta hajmdagi lug'at boyligiga ega bo'lishida o'zlashma so'zlarning o'rni kattadir.

Bugungi kundagi zamonaviy indonez tili (**bahasa indonesia**) o'zlashma so'zlardan kundalik hayotda ham, rasmiy davlat ishlari doirasida ham, deyarli barcha sohalarda juda keng foydalanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, shu paytgacha indonez tiliga kirib kelgan so'zlarning taxminiy miqdori, tilshunoslar hisob-kitobiga ko'ra, 50.000 (ellik ming) tani tashkil qiladi. Jumladan, Golland, Arab, Fors, Portugal, Sanskrit tillari indonez tiliga eng ko'p o'zlashgan tillardir. Yuqoridagi tillarning bugungi kundagi holati, ya'ni tildagi aktivlik darajasiga keladigan bo'lsak, Yevropa tillar oilasiga mansub

bo'lgan tillar, xususan, Golland, Portugal va Ingliz tillari Indonez tili tarkibida rasmiy va norasmiy nutqda eng ko'p qo'llaniladi. So'zimiz dalili sifatida, birgina Golland tilidan kirib kelgan so'zlar miqdori 10.000 (o'n ming) ni tashkil etib, ular indonez tilida so'zlashuvchilar tomonidan og'zaki nutqda eng ko'p ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.А. Потебня. Мысл и язык. Одесса.1992
2. Винокур Г.О. Избрынне работы по русскому языку. М.1959 й
3. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М. Прогреса 1982
4. Пауль. Г. Принципы истории языка. М. Изд.Лит.на иностр.яз.1960
5. Ricklefs, M.C.(1991). "A History of Modern Indonesia". 2nd Edition. London: MacMillan.